

**ASOSIY VOSITALARNI BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTI
(BHXS) 16 DA XISOBGA OLİSH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810880>

Arslonov Abduqodir

Termiz Davlat universiteti

*Iqtisodiyot va Turizm fakulteti Buxgalteriya
yo`nalishi 2-kurs magistranti*


Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar mahalliy iqtisodchi olimlar A.Vaxobov, D.G'ozibekov, M.Angelidi, N.Karimov, N.Haydarov, O.Sobirov, A.Jo'raev, D.Xo'jamqulov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Maqola mavzusini nazariy jihatdan yoritishda O'zbekistonda, Rossiyada va qator rivojlangan xorijiy davlatlarda chop etilgan adabiyotlardan foydalanildi.

KIRISH

“Asosiy vositalar” – 16-BHXSning maqsadi, mazmuni va asosiy qoidalari Ushbu standartning maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tadbirkorlik subyektining asosiy vositalariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o`zgarishlar haqidagi ma`lumotlarni tushunishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir. Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar bo`lib aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va ular bo`yicha eskirish xarajatlarini va qadrsizlanish bo`yicha zararlarni tan olish hisoblanadi. Ushbu standart asosiy vositalarni hisobga olishda qo'llanilishi lozim, biroq boshqa standartlar asosiy vositalarni o`zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.


BHXS, asosiy vositalarni xisobga olishning turli jihatlarlari bilan shug'ullanadi, jumladan;



Quyidagi standartlar BHXS 16 da qamrab olinmagan sohalarni o'z ichiga oladi:


1. Asosiy vositalarning qadrsizlanishi (BHXS 36 “*Uzoq muddaili aktivlarning qadrsizlanishi*” bilan shug'ullanadi)
2. Nomoddiy aktivlar va gudvil (BHXS 38da “*Nomoddiy aktivlar*”ni qamrab olgan)
3. Aktivlarning haqqoniy/adolatli qiymati (MHXS 13 “*Haqqoniy qiymatni baholah*”ni o'z ichiga olingan)
4. Qarzlar bo'yicha foiz va boshqa xarajatlarni kapitallashtirish (BHXS 23, “*Qarzlar bo'yicha xarajatlar*”)
5. Biologik aktivlar, qishloq xo'jaligiga oid (BHXS 41, “*Qishloq xo'jaligi*”)
6. Asosiy vositalarni sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflanish (MHXS 5, “*Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat*”)
7. Ijaraga olingan aktivlar (MHXS 16 “*Ijara*”)
8. Asosiy vositalarning kichik ehtiyyot qismlari (BHXS 2 “*Tovar-moddiy zaxiralalar*”)
9. Investitsion ko'chmas mulk hisobi (BHXS 40, “*Investitsion mulk*”)
10. Davlat grantlari asosida qurilgan asosiy vositalar (BHXS 20, “*Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish*”)
11. Asosiy vositalarning ekspluatatsiya narxlari (BHXS 37, “*Rezervlar, shartli majburiyatlar, shartli aktivlar*”)

Misol keltirishga ruxsat bersangiz, siz fabrikangizga o'rnatish uchun asbob-uskunalar sotib oldingiz.



Naqd bo'limgan operatsiyalar:

Agarda siz asosiy vositani naqd pulga emas balki, sizning boshqa asosiy vositangizni ayriboshlash hisobiga sotib olsangiz, siz mulkning narxini o'zining sotib olgan asosiy vosita haqqoniy/adolatli qiymatida tan olishingiz kerak. Agarda mulklarning haqqoniy/adolatli qiymatini ishonchli darajada hisoblashni imkon bo'lmasa, siz sotib olingan aktivni almashtirilgan aktivning hozirgi balans qiymatida tan olishingiz kerak.



Yuqoridagi ikki talabni bajaradigan aktivlar **kvalifikatsiyalanadigan aktiv** deb ta'riflanadi.¹²


¹² Ibragimovna, K. K. (2021). Accounting of tax benefits. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 26-29

Kvalifikatsiyalanadigan aktiv bitib, mo'ljallangan foydalanishga tayyor bo'lgandan keyin, aktivdan foydalanishni hali boshlamagan bo'lsangiz ham, foiz xarajatlarini kapitallashtirishni to'xtatishingiz kerak. Kapitallashtirishni to'xtatganingizdan keyin, qarz bilan bog'liq xarajatlar foyda va zarar to'g'risidagi hisobotga olib boriladi.¹³

Agarda sizning kompaniyangizda kreditlar ko'p bo'lsa va hech qaysi kredit kvalifikatsiyalanadigan aktivni qurish uchun maqsadli olinmagan, balki barchasi umumiy kredit bo'lsa, siz barcha qarzlar bo'yicha xarajatlarni o'rta-vazn foiz stavkasini hisoblab, shu xarajatni kapitallashtirishingiz kerak.

Asosiy vositalarning tan olishdan keyingi baholash: Tannarx va qayta baholash modellari

Asosiy vositalarning keying baholanishiga kelganda, sizda hisob siyosatingiz bo'yicha tanlovingiz bo'ladi. Siz ushbu tanlovni barcha asosiy vositalar uchun birdek emas, balki asosiy vosita turi/turkumi bo'yicha amalga oshirasiz. "Asosiy vosita turi/turkumi" deganda men quyidailarni nazarda tutaman:



Quyida siz qayta baholash haqidagi asosiy qoidalarni ko'rishingiz mumkin:

- Qayta baholash natijasida kelib chiqgan daromad foyda va zararga emas, balki boshqa umumlashgan daromadga (other comprehensive income) olib boriladi. Shuning uchun ushbu summalar kapitalingizda taqsimlanmagan foydaga emas, balki [milliy standartlarimizdek] "qayta baholash rezervi"ga olib boriladi.
- Qayta baholash natijasida kelib chiqgan zararlar va qadrsizlanish boshqa umumlashgan daromadlardan oldingi jamg'arilgan daromadlarni kamaytiradi, ammo agar qayta baholash bo'yicha zarar yoki qiymatning pasayishi ushbu aktiv uchun qayta baholash rezervida jamlangan qayta baholash daromadlaridan oshib ketsa, unda zararlar foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tarkibida tan olinadi.
- Agarda qayta baholash bo'yicha foyda sizning foyda va zararingizga ta'sir qiladigan qadrsizlanishdan keyin qayd etilsa, u holda qayta baholash bo'yicha foydani

¹³ M.Bonham and others. Generally accepted Accounting practice under IFRS. Ernst & Young LLP, United States, 2010.- part 2. p.1128.

birinchi navbatda sizning foyda va zararlaringiz orqali oldinroq qayd etilgan zararni ‘qoplaydi’, va keyin boshqa umumlashgan daromadlarda qayd etiladi.

O’ylashimcha, shu yergacha o’quvchilarimning ba’zilarini yo’qotib qo’ydim.. Keling, sizlarga yuqoridagi qoidani raqamlar bilan ko’rsatib beray:

2023-yil 1 Yanvar - qayta baholashdan \$100 daromad:

Dt. Asosiy vositalar	100
Kt. Qayta baholash zaxirasi (OCI)	(100)

31 Mart - \$200 qiymatdagি qadrsizlanish:

Dt. Qayta baholash zaxirasi (OCI)	100
Dt. Davr xarajatlari (P&L)	100
Kt. Asosiy vositalar	(200)

2023-yil 30 Iyun – qayta baholashdan \$150 daromad:

Dt. Asosiy vositalar	150
Kt. Davr xarajatlari/boshqa daromadlar (P&L)	(100)
Kt. Qayta baholash zaxirasi (OCI)	(50)

va hokazo. Bu misollar endi sizning tushunchangizni oshirde deb umid qilaman.

Xulosa

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat’iy nazar, barcha xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo’lishi va o’zining sarmoyasini kiritish bo'yicha engilliklar tug'diradi. Buxgalteriya hisobi ma'lum bir xo’jalik yurituvchi sub’ekt to’g’risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishslash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi sub’ektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga 9 ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma'lumotga bo’lgan ehtiyojini, ushbu ma'lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir. O’z-o’zidan ma'lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo’lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo’lishi lozim. Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo’lib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo’jalik mablag’lari, shu mablag’lar manbalari, ularning xo’jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo’lib hisoblanadi. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moddiy va nomoddiy aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog’liq bo’lgan xo’jalik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ob’ektlari hisoblanadi. Asosiy vositalar hisobini samarali tashkil etish ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxonaniq hisoblash, asosiy vositalarning holatini o‘z vaqtida nazorat qilish va ularni o‘z vaqtida yangilashga imkon beradi, korxona balansida bo’lgan asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayoniga holatiga va munosabatiga qarab buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarish

uchun amortizatsiya har oyda xarajat –qoldiq yoki boshlang‘ich bo‘yicha hisoblanadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Hammuallif – T.: “MOLIYa”, 2010 – 272 b.
2. M.Bonham. Generally accepted accounting practice under IFRS. Ernst & Young. USA, 2010.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. T.: - 2004.
4. Jalolova D. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
5. Mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta. I tom. - Tashkent, 2000.
6. Mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta. II tom. - Tashkent, 2000.